# YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, adabiy-badiiy gazeta

#28 (16682)
2025-yil 16-iyul, chorshanba

/yoshlarovozi  /yoshlarovozi  /yoshlarovozi.uz

Gazeta 1925-yildan chiqa boshlagan





Foto: Nargiza MUSAYEVA

3-bet

## 6295 NAFAR YOSHNING BANDLIGI TA'MINLANDI

Yoshlar bilan ishlash sohasidagi yondashuv ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash bilan birga kelajak taraqqiyotining asosiy omilidir. Surxondaryoda bu boradagi tizimli ishlar yildan yilga yangi bosqichlarda takomillashib bormoqda.

Viloyat aholisi 2,9 milliondan ziyod boʻlib, 1 million 756 ming nafardan ortigʻi 0-30 yoshdagi, 769 ming 657 nafari esa 14-30 yoshdagi fuqarolardir. Tahlil natijalariga koʻra, yoshlarning salmoqli qismi "yaxshi" toifaga kirgan boʻlsa-da, muammoli toifadagi 12 ming nafardan ortiq yosh bilan ishlash doimiy nazoratga olingan.

## Ozodbek – MAHALLANING NAQSHI

3-bet



Buxoro viloyati Kogon tumanidagi Bahouddin Naqshband mahallasida Ozodbek Aminjonov yoshlar yetakchisi sifatida ishlamoqda. Uning tashabbuskorligi va "harakatda barakat" tamoyiliga asoslangan amaliy ishlari nafaqat mahalla ahli, balki butun tuman yoshlari uchun ibrat boʻlmoqda. Ozodbek yoshlarning iqtidor va salohiyatini roʻyobga chiqarish, ularni dehqonchilik faoliyatiga jalb etish maqsadida yer ajratilishiga koʻmaklashish, tadbirkorlik faoliyatini boshlashiga sharoit yaratish yoʻlida mehnat qilmoqda.



## Oʻzbekiston – XALQARO YOSHLAR SIYOSATIDA tashabbuskor va yetakchi davlat

2-bet

Oxirgi yillarda Oʻzbekistonda yoshlar masalalari davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida belgilanib, amaliy chora-tadbirlar koʻlami ortgani mamlakatning xalqaro miqyosdagi obroʻ-e'tiboriga ijobiy ta'sir koʻrsatdi. Shaxsan davlat rahbari yoshlarning huquqlari, manfaatlari va imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi. Bu tashabbuslar mintaqaviy darajada yoshlar oʻrtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Oʻzbekistonning Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi ishlari ham alohida diqqatga molik. Xususan, 2022-yilda Buxoro shahri "Birinchi turkiy dunyo yoshlar poytaxti" deb e'lon qilindi. Marosim Turkiya, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Ozarbayjon, Vengriya va boshqa davlatlardan kelgan 800 nafardan ziyod delegat ishtirokida tantanali tarzda oʻtkazildi. Forum doirasida muhim loyihalarni Oʻzbekistonda amalga oshirish yuzasidan muzokaralar olib borildi. Buxoro shahrida "Birinchi turkiy dunyo yoshlar tashabbuslari poytaxti" monumenti ochildi va yoshlar bogʻi tashkil etildi.

## YOSHLAR MUAMMOLARI OʻRGANILMOQDA

Yoshlar bandligini ta'minlash, "Dolzarb 90 kun" loyihasi doirasida yoshlarning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish, jinoyatchilikning oldini olish va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish borasidagi ishlar samaradorligi bilan tanishish maqsadida Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish boʻyicha Respublika komissiyasi ishchi guruhi a'zolari hamda Davlat xavfsizlik xizmati mas'ullari Namangan, Andijon va Fargʻona viloyatlarida boʻldi.

Ishchi guruh a'zolari yoshlar bilan ochiq muloqotlar oʻtkazib, ularning fikr-mulohazalari va takliflarini eshitdi. Aniqlangan muammolar yuzasidan mas'ul tashkilotlarga aniq topshiriqlar berildi.

***

Andijon viloyati Bobur shahrida oʻtkazilgan yigʻilishda davlatning alohida e'tiboriga muhtoj yoshlar bandligini ta'minlash, huquq-tartibot va mudofaa organlari tomonidan otaliqqa olingan yoshlar bilan ishlashdagi mavjud kamchiliklar atroflicha tahlil qilindi.

Viloyatda ogʻir toifadagi ishsiz yoshlarni daromadli mehnat bilan ta'minlash boʻyicha maxsus dastur ishlab chiqilishi, yil yakuniga qadar Andijonni "yoshlar ishsizligidan holi hudud" sifatida shakllantirish boʻyicha tajriba joriy etilishi belgilab olindi.

***

Namangan viloyati Uychi tumanidagi Qumtepa mahallasida oʻtkazilgan muloqotda fuqarolar bilan ishlash sifati, yoshlar bandligi, xotin-qizlar faolligini oshirish, infratuzilma va ijtimoiy-iqtisodiy masalalar muhokama qilindi.

Respublika komissiyasi raisi Qahramon Quronboyev oʻz nutqida mahalla institutining jamiyatdagi oʻrni va ahamiyatini alohida ta'kidlab, har bir mahalla yettiligi a'zosi – rais, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, soliqchi va boshqa mas'ul shaxslar faoliyatini tizimli tashkil etish boʻyicha tavsiyalar berdi.

***

Fargʻona viloyatida ham qator oʻrganish ishlari olib borildi. Oʻtkazilgan yigʻilishda soʻnggi olti oyda yoshlar siyosati sohasida erishilgan natijalar tahlil qilindi. Bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish masalalari koʻrib chiqildi.

Shuningdek, mas'ul rahbarlarning shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirish zarurligi qayd etildi. Yoshlar bilan individual ishlashda faollik koʻrsatmagan ayrim rahbarlarning faoliyati tanqidiy baholandi.

## MAGISTRATURA QABULI SAVOLLARGA JAVOB BORMI?

2-bet

Joriy yil 7-iyul sanasidan OTMning magistratura bosqichiga arizalarni qabul qilish boshlandi. 2022-yilda belgilangan tartibga koʻra, bu yil ham talabgorlar hech qanday imtihonlarsiz – diplom bali va til sertifikati darajasiga koʻra saralanadi. Ammo bu tartib amalga kiritilganidan beri talabgorlarni ba'zi savollar qiynab kelayotir: qabul qachongacha davom etishi, ona tili va adabiyoti hamda oʻzbek tili va adabiyoti yoʻnalishlariga qaysi darajadagi til sertifikati zarurligi, bakalavrni xorijiy tilda oʻqigan abituriyentlar uchun ham til sertifikati kerakmi kabi savollar.

### QABUL KUNI UZAYTIRILADIMI?

Ma'lumotlarga koʻra, 1-iyuldan 30-iyulga qadar my.edu.uz platformasi orqali magistratura uchun arizalar yuborilishi kerak edi. Ammo tizim 7-iyuldan ishga tushdi. Ma'lum muddatga kechikish yuzasidan hech qanday bayonot berilmagan. Oliy ta'lim vazirligining ma'lum qilishicha qabul jarayoni 30-iyulga qadar (shu kuni ham) davom etadi. 9-iyul holatiga koʻra, platformaga 3886 ta ariza yuborilgan. Ayrim OTM bakalavr bitiruvchilari uchun hali diplom berilmaganini ham inobatga olish kerak.





## ODIL VA MUSTAQIL SUD *Monteskye nigohida*

4-bet

Har qanday demokratik jamiyatning tayanchi adolatli va mustaqil sud tizimidir. Sud hokimiyati qonun ustuvorligini ta'minlaydi, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini real hayotda himoya qiluvchi mexanizm sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan qaralganda, sud hokimiyatining jamiyatdagi oʻrni va uning shakllanish tamoyillari har doim dolzarb mavzu boʻlib kelgan. Bu borada fransuz ma'rifatparvari va huquqshunosi Sharl Lui de Monteskyening qarashlari alohida ahamiyatga ega.

Monteskye XVIII asrda yashab ijod qilgan, davlat hokimiyatining adolatli tashkil etilishi haqida chuqur falsafiy va siyosiy qarashlarni ilgari surgan mutafakkir sifatida tanilgan. Uning "Qonunlar ruhi haqida" nomli asari bugungi kunda ham zamonaviy huquqiy davlatlar uchun nazariy asos boʻlib xizmat qilmoqda. Asarda u hokimiyatlar boʻlinishi tamoyilini ilgari surgan boʻlib, sud hokimiyatining boshqa tarmoqlardan mustaqil boʻlishi zarurligini ta'kidlaydi.



## ADABIYOTNING "MARD OʻGʻLON"I

2-bet

30-iyun – Yoshlar kuni bayram tadbirida shaxsan davlatimiz rahbari ishtirok etgani va bir qator yoshlarga "Mard oʻgʻlon" hamda "Kelajak bunyodkori" davlat mukofotlarini topshirgani bayram shukuhini yanada oshirdi.

Respublikamizda oʻz sohasining eng ilgʻor va shijoatkor yoshlari qatorida adabiyot vakili sifatida qatnashganim va "Mard oʻgʻlon" davlat mukofotiga loyiq koʻrilganim yurt ravnaqi uchun adabiyotning ham oʻrni borligini koʻrsatadi. Bu mukofot biz kabi yosh ijodkorlarga katta ishonch va ulkan mas'uliyat yuklaydi. Endi uni oqlash uchun yanada samarali ishlash, adabiyotimiz ravnaqi, mamlakatimiz taraqqiyoti yoʻlida jadallashishimiz kerak. Bunga yetarli salohiyat hamda kuch-gʻayratimiz mavjud.

# O'zbekiston – XALQARO YOSHLAR SIYOSATIDA tashabbuskor va yetakchi davlat

**Ilyos MATLABOV,**
Yoshlar ishlari agentligining xalqaro hamkorlik va reytinglar bo'limi boshlig'i

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



### TOSHKENT – MDH YOSHLAR POYTAXTI

2023-yil 8-iyun kuni MDH Hukumat rahbarlari kengashi qaroriga muvofiq Toshkent shahri 2024-yilda “MDHning Yoshlar poytaxti” deb e'lon qilindi. Shu asosda Yoshlar ishlari agentligi yil davomida “Toshkent – MDH yoshlar poytaxti” xalqaro loyihasini amalga oshirdi.

2024-yil 15-16-aprel kunlari Toshkentdagi Yoshlar ijod saroyida loyihaning ochilish marosimi, MDHga a'zo davlatlar Yoshlar ishlari bo'yicha kengashining yig'ilishi va yoshlar jamoat birlashmalari forumi tashkil etildi. Tadbirda MDHga a'zo davlatlardan 40 nafar rasmiy mehmon va 300 nafarga yaqin yoshlar ishtirok etdi.

Forum doirasida ta'lim, ekologiya va volontyorlik yo'nalishlarida fikr almashildi, yoshlar tashkilotlari va mutaxassislar o'rtasida hamkorlik aloqalari mustahkamlandi. Mazkur xalqaro tashabbus O'zbekistonning yoshlar siyosatidagi faolligini amaliy loyihalar orqali namoyon etib, yosh avlodga global muammolarni birgalikda muhokama qilish va yechim topishda ishtirok etish imkonini yaratdi. 2024-yil 24-dekabr kuni “Toshkent – MDH yoshlar poytaxti” loyihasining tantanali yopilish marosimi bo'lib o'tdi.

O'tgan yili yoshlar siyosatida mintaqaviy integratsiyani mustahkamlash yo'lida yana bir muhim qadam tashlandi. 2024-yil 25-oktabrda Markaziy Osiyo davlatlari “Yoshlarga oid siyosatning umumiy yo'nalishlari to'g'risida”gi bitimni ratisifikatsiya qilish haqidagi qonun qabul qilindi. Ushbu hujjat yoshlar siyosatida yagona platforma va yondashuvni shakllantirishga xizmat qildi.



> MAMLAKATIMIZ YOSHLAR TARAQQIYOT INDEKSIDA ENG TEZ RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKAT SIFATIDA E'TIROF ETILDI.

2024-yil iyun oyida esa Butunjahon yoshlar festivali ilk bor O'zbekistonda o'tkazildi. Festivalning ochilish marosimi Samarqand shahrida bo'lib o'tdi va unda 1500 nafar yoshlar ishtirok etdi. Tadbirlar Buxoro, Samarqand, Xorazm, Toshkent viloyati hamda Toshkent shahrida davom etdi. Umumiy hisobda festivalda 92 davlatdan 700 nafar xorijlik delegat va 1 millionga yaqin mahalliy yoshlar qatnashdi.

Bu xalqaro tashabbus do'stlik, o'zaro hamkorlik, madaniy almashinuv va innovatsion g'oyalarni ilgari surishga xizmat qildi. Shu tariqa, 2024-yil O'zbekiston yoshlar siyosatining mintaqaviy va global miqyosdagi faolligi bilan tarixda muhim bosqich sifatida qayd etildi.

### O'ZBEKISTON 10 YETAKCHI DAVLAT QATORIDA

2025-yil 14–18-may kunlari BMT Bosh kotibining yoshlar ishlari bo'yicha yordamchisi Felipe Paulliyer rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'lib, 15-may kuni Xalqaro iqlim kuniga bag'ishlangan raqamli “yashil” tashabbuslar global yoshlar festivalida ishtirok etdi. Festivalda “O'zbekiston – 2030” strategiyasi, Yoshlar parlamenti va Agentlik faoliyatiga oid taqdimotlar namoyish etildi. F.Paulliyer 2026-yilda Samarqand shahrida o'tkaziladigan Yoshlar parlamentlari forumiga faxriy mehmon sifatida taklif etildi.

Mamlakatimiz BMTning “Yoshlar – 2030” strategiyasini jadal amalga oshirayotgan dunyodagi 10 ta yetakchi davlat qatoriga kirgan bo'lib, Yoshlar taraqqiyot indeksida eng tez rivojlanayotgan mamlakat sifatida e'tirof etildi.

Uchrashuvlar yakunida sheriklikni yanada chuqurlashtirish yo'li belgilanib, bu beshta strategik kelishuvda mustahkamlab qo'yildi. Bu kelishuvlar O'zbekistonning ilg'or tajribasini jahon miqyosida ilgari surishni, yoshlarning BMT tuzilmalarida ishtirokini qo'llab-quvvatlashda uning hududiy yetakchi sifatidagi rolini tasdiqlashni, shuningdek, 2025-yil sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining tegishli tadbirlarida O'zbekiston delegatsiyasining faol rolini ta'minlashni nazarda tutadi. Bundan tashqari, mamlakatdagi islohotlarni xalqaro miqyosda keng yoritish va Samarqand forumini yuqori saviyada o'tkazishda BMT tomonidan ko'maklashish bo'yicha kelishuvga erishildi. Shu tariqa, ushbu tashrif O'zbekiston yoshlari salohiyatini global miqyosda ro'yobga chiqarish uchun mustahkam poydevor yaratib, respublikaning xalqaro maydondagi nufuzini yanada yuksaltirishga zamin yaratdi.

### GLOBAL YOSHLAR FESTIVALI

2025-yil 5-may–30-iyun kunlari Samarqand va Toshkent shaharlarida Global yoshlar festivali bo'lib o'tdi. 3–6-iyun kunlari Samarqandda “Yoshlar tadbirkorligi haftaligi” o'tkazilib, uning doirasida “O'zbekiston–Pokiston yosh tadbirkorlar forumi” hamda “O'zbekiston–Xitoy yoshlar forumi” tashkil etildi. 4-iyun kuni har ikki delegatsiya biznes marafonda ishtirok etdi. 16–19-iyun kunlari esa Toshkentda “Kreativ loyihalar va ilm-fan haftaligi” doirasida “III Turkiy davlatlar yoshlar diaspora forumi” o'tkazilib, unda Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo va kuzatuvchi mamlakatlardan 16 nafar yosh diaspora vakillari hamda TDT Bosh kotibi o'rinbosari O.Kochaman ishtirok etdi.

> 2024-YIL IYUN OYIDA BUTUNJAHON YOSHLAR FESTIVALI ILK BOR O'ZBEKISTONDA O'TKAZILDI.




O'zbekiston yoshlar siyosatidagi mintaqaviy va xalqaro tashabbuslari orqali global miqyosda yoshlar bilan ishlashning yangi modelini shakllantirmoqda. Tashabbuslar davlatlararo munosabatlarda yoshlar diplomatiyasini mustahkamlash, yoshlarning xalqaro masalalardagi ishtirokini ta'minlash, ilm-fan va madaniyat sohasida hamkorlikni kuchaytirish imkonini beradi. O'zbekiston bu jarayonda faqat ishtirokchi emas, balki tashabbuskor va yetakchi rolini bajarayotgani bugungi siyosiy voqelikning muhim yutug'i hisoblanadi.



**Sanjar TOSHBEKOV,**
“Mard o'g'lon” davlat mukofoti sohibi

# ADABIYOTNING “MARD O'G'LON”I

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Bugungi kunda kitobxonlikning keng targ'ib qilinishi, o'tkazilayotgan turli tanlov va seminarlar yoshlarni ma'rifatga yo'naltirishga xizmat qiladi. Yaqinda Yoshlar ishlari agentligi o'tkazgan “Duel” loyihasi, raqamli texnologiyalar asriga moslashib, kitoblarni elektron shaklda jamlab borayotgan “Mutolaa” loyihasi kabi tashabbuslar ham shular jumlasidan. Yoki “Yozuvchilar uyushmasi” an'anaviy o'tkazib kelayotgan “Zomin seminari” ham yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash uchun tashkil etilgan. Bu loyihada qatnashgan yigit-qizlarning ijodiy ishlari “Birinchi kitobim” loyihasida nashr ettirilib, yurtimiz bo'ylab barcha maktab, kutubxonalarga yetkazilayotir.

9 ta viloyatimizda buyuk yozuvchi-shoirlarimiz nomidagi ijod maktablari faoliyat yuritmoqda. Bunda tahsil olayotgan minglab yigit-qizlar bevosita adabiyot osmoniga uchirma bo'ladi. Bir-biridan ijodiy quvvat oladi. Ijod sir-asrorini o'rganadi. Ko'zga ko'ringan ijodkorlardan mahorat saboqlarini oladi. Bu esa adabiyot uchun katta to'lqinni yuzaga keltiradi. Bu to'lqin o'zbek adabiyotining faqatgina yurtimizda emas, jahon miqyosida keng targ'ib qilinishi va rivoji uchun xizmat qiladi. Chunki chet tillarga e'tibor kuchaygan bu davrda milliy adabiyotlar ham dunyo tillariga o'girilib, katta-katta anjumanlarda taqdimot qilinmoqda. E'tirof etilmoqda.



Davlat tirik organizmga o'xshaydi. Uning sekin-asta rivojlanishi barcha sohalarni qamrab oladi. Futbol bo'yicha mundialga chiqishimiz ham o'z-o'zidan bo'lgani yo'q. Uzoq yillar davomidagi e'tibor samarasi. Yoki dunyoning eng yetakchi universitetlaridagi talabalar qatorida o'zimizning qorako'zlarimiz ham ko'payib, safi yildan-yilga ortib borishi “El-yurt umidi jamg'armasi” kabi yirik loyihalarning hosilasidir.

Yuqoridagi e'tiborlar samarasi o'laroq nashriyotlarimizda nashr etilayotgan kitoblar sifati, tarjimonlik mahorati va dizayni borasida o'sish kuzatilmoqda. Sog'lom raqobat muhiti shakllanmoqda. Bu esa kitoblar bozorgirligi, o'qirmanlarning talablariga mos kitoblar ko'payishiga ta'sir qiladi.

Ishonchim komilki, adabiyot ahliga ko'rsatilayotgan bugungi e'tibor ham albatta o'z samarasini berajak. Zero yurtimizda IT parklar, zamonaviy o'quv markazlari, ixtisoslashtirilgan maktablar qatori adabiyot maktablari ham, Yozuvchilar uyushmasining muhtasham va ko'rkam binolari qayta tiklanganligi ham bejiz emasdir. Endi bizdan natija, katta-katta asarlar, dunyo miqyosida bellasha oladigan ijodiy ishlar kutilmoqda. Biz bu chaqiriqqa har bir soha kabi o'z munosabatimizni yangi-yangi asarlarimiz, tarjimalarimiz orqali bildirmog'imiz joiz.

Yosh ijodkorlar orasida “Ilhom”, “Zulfiya”, “Mard o'g'lon” kabi mukofotlar sohiblari borligi va ijodiga munosib rag'batlar bo'layotgani, gazeta va jurnallarda yoziqlari chop etilishi, kitoblari minglab nusxada respublika bo'yicha tarqatilishi – har bir ijodkor orzusining ro'yobi bo'lishi shubhasiz. Imkoniyatlardan unumli foydalanib, millat oldidagi, so'z oldidagi, adabiyot oldidagi sharafli burchni ado etish zarur.

Navoiy ijodida Husayn Boyqaroning o'rni va hazratga ko'rsatgan e'tibori qanchalik samara bergani hech kimga sir emas. Prezidentimizning bugungi ijod ahliga katta imkoniyatlar berayotgani va ishonchi ham o'z samarasini beradi. Davlat rahbarining qo'llaridan mukofotni qabul qilib olayotganimda menga yaxshi asarlar yozishimni tiladi. Men bu ishonchdan juda minnatdorligimni bildira oldim xolos. Bunday e'tibor va ishonch davom etarkan, Navoiy izdoshlari safi kengayishiga ishonchim komil.

# MAGISTRATURA QABULI SAVOLLARGA JAVOB BORMI?

**Sarvinoz KOMILOVA,**
*“Yoshlar ovozi” muxbiri*

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



### ONA TILI VA ADABIYOT YO'NALISHI UCHUN QAYSI DARAJADAGI TIL SERTIFIKATI ZARUR?

2022-yilda Kun.uz saytida quyidagicha axborot berilgan: *“Ona tili va adabiyot, adabiyotshunoslik kabi yo'nalishlar ham filologik bo'lgani uchun bitiruvchilardan C1 darajadagi til sertifikati talab qilinadi degan yanglish fikr yoki ma'lumotlar bor. Kun.uz Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligidan aniqlik kiritishicha, bu kabi yo'nalishlarga B2 sertifikati talab qilinadi”.* Bugungi kunga kelib esa bu tartib o'zgargan. Ammo chalg'ish va yanglish fikrlar hali ham bor.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 14-iyundagi buyrug'i bilan OTMning magistratura mutaxassisliklariga hujjat topshirishda talab etiladigan xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro'yxati e'lon qilingan. Unga ko'ra, ona tili va adabiyot hamda o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishlari uchun B1 darajadagi til sertifikati, adabiyotshunoslik yo'nalishi uchun C1 darajadagi til sertifikati talab etilishi belgilangan.

### BAKALAVRNI XORIJIY TILDA O'QIGANLARDAN HAM TIL SERTIFIKATI TALAB QILINADIMI?

O'zbekistonda 7 ta til ta'lim tili sifatida belgilangan va ular xorijiy til deb hisoblanmaydi. Bular: *o'zbek, qoraqalpoq, rus, tojik, qirg'iz, qozoq va turkman. Demak, o'z-o'zidan bakalavrni mana shu tillarda o'qib tamomlaganlardan ham belgilangan xorijiy til sertifikati talab qilinadi. Bakalavrni nodavlat universitetda to'liq ingliz tilida o'qib tugatganlar ham bu talabdan chetda qolmaydi. Ya'ni ular ham davlat universitetlarida magistraturani o'qimoqchi bo'lsa, belgilangan turdagi sertifikatni taqdim qilishi zarur.*

### IMTIYOZLAR

*Magistratura bosqichi uchun ham bir nechta imtiyozlar mavjud. Ulardan biri imkoniyati cheklanganlar uchun. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-oktabrdagi 407-sonli qarorida davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura mutaxassisliklariga hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim ixtisosliklariga o'qishga qabul qilishda ko'rish, eshitish va nutqida nuqsoni bo'lgan shaxslar tomonidan xorijiy tilni bilish bo'yicha milliy yoki unga tenglashtirilgan xalqaro sertifikatni taqdim etish talab etilmaydi, deb belgilab o'tilgan.*

*Ikkinchisi,* O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2022-yil 7-martdagi PF-87-son farmoniga muvofiq davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini qaytarish shartisiz qoplash maqsadida Davlat byudjetidan har yili kamida 200 milliard so'm moliyalashtiriladi. Sodda qilib tushuntirilsa, magistratura bosqichiga kirgan barcha xotin-qizlarning to'lov-kontrakt puli davlat tomonidan qoplab beriladi. Buning uchun ular belgilangan sanadan kechikmay rektor nomiga ariza yozishi kifoya.

Yana bir qator toifadagi talabalar magistraturaga imtihonsiz, grant asosida o'qishga kiradi. Jumladan:

- *Prezident va nomli davlat stipendiyalari sovrindorlari;*
- *Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohiblari;*
- *“Mard o'g'lon” davlat mukofoti sohiblari;*
- *fan olimpiadalari g'oliblari;*
- *Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi o'tkazadigan fan olimpiadalari g'oliblari (3 ta o'rin).*

Kimyo va biologiya, informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishini imtiyozli diplom bilan tamomlaganlar esa o'z yo'nalishiga imtihonlarsiz to'lov-kontrakt asosida qabul qilinadi. Ulardan chet tili sertifikati ham talab qilinmaydi. Faqat bir shart: bu imtiyozlardan foydalanmoqchi bo'lgan talabgor mukofot bilan taqdirlangan paytda talaba bo'lishi yoki bakalavriat bosqichini tamomlagan bo'lishi kerak.

Bu kabi imtiyozlar bo'lgani yaxshi. Lekin masalaga boshqa tarafdan qaralsa, talablarning asl mohiyatiga biroz zid ekanligini ko'rish mumkin. Chet tili sertifikati talabi aslida magistratura bosqichida talabalar asosan ilmiy ishlar bilan shug'ullanishini, bu jarayonda til bilish muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olib joriy qilingan. Lekin yuqoridagi yo'nalishlarda mukofotlanganlarning barchasi xorijiy tillarni belgilangan darajada bilishiga hech kim kafolat bera olmaydi.

# Ozodbek – MAHALLANING NAQSHI

## ISHSIZLIKDAN FAROVONLIKKA

**Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,**
"Yoshlar ovozi" muxbiri

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



*"Yashil" toifa:* **913 nafar** | *"Sariq" toifa:* **147 nafar** | *"Qizil" toifa:* **33 nafar**

**Mahalla drayveri:** issiqxona va xizmat ko'rsatish.

– *Ota-bobolarimiz azaldan dehqonchilik bilan shug'ullangan,* – deydi yoshlar yetakchisi Ozodbek Aminjonov. – *Yerni boqsang, yer seni boqadi, deyishadi. Shu sababli mahallamizdagi ishsiz yoshlar bandligini ta'minlashda biz yerni asosiy vosita sifatida ko'rib, ularni dehqonchilikka jalb qilmoqdamiz. Bu ularning tadbirkorlik faoliyatini boshlashiga turtki bo'lyapti. Bugungi kunda mahallamizning asosiy daromad manbayi dehqonchilik, xususan, issiqxona xo'jaligi hisoblanadi. Yoshlar uchun ajratilgan yer maydonlarida zamonaviy issiqxonalar barpo qilinib, ularga imtiyozli kreditlar, texnik yordam va amaliy maslahat bermoqdamiz. Natijada bir qancha yoshlar o'z ishini boshladi, mahsulot yetishtirib ichki bozorga chiqarmoqda, ba'zilari esa eksport qilish darajasiga yetdi. Bu ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash bilan birga, mahallada bandlik va ijtimoiy faollikni ham oshirmoqda.*

**MAHALLA BALANSI:**

*Aholi soni:*
**5137 nafar;**
*Yoshlar soni:*
**1060 nafar;**
*Ayol-qizlar:*
**532 nafar.**



### ISSIQXONA – DAROMAD MANBAYI

2024-yilda Prezidentning "Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-153-son qaroriga muvofiq, yoshlarning bandligini ta'minlash va ularni daromadli faoliyatga yo'naltirish maqsadida yetakchi tashabbusi bilan mahallada birinchi marta issiqxonalar konturi tashkil etildi. Qaror asosida 2 gektar yer ajratilgan bo'lsa, shundan 8 nafar yoshga jami 34 sotix yer ajratilib, ular uchun imtiyozli kreditlar asosida issiqxonalar qurib berildi. Bu yoshlarning nafaqat ish bilan band bo'lishiga, balki o'ziga xos tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishiga imkon yaratdi. Loyiha iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan ham muhim. Chunki har bir issiqxona bu – oila uchun daromad, jamiyat uchun esa ijtimoiy barqarorlik manbayidir.

### "YOSHLAR DAFTARI"

2024-2025-yillarda mahalladagi 40 nafar yoshga "Yoshlar daftari" orqali yordam ko'rsatilgan.

– 3 nafarining kontrakti to'langan;
– 1 nafari kelajak kasblariga o'qitilgan;
– 2 nafariga subsidiya asosida asbob-uskunalar berilgan;
– 2 nafariga imtiyozli kredit ajratilgan;
– 30 nafar yoshga dehqonchilik qilishi uchun yer ajratilgan;
– 2 nafariga boshqa turdagi yordamlar ko'rsatilgan.



### MEHNAT – BARAKA KELTIRADI

Mahalla yoshlari yer maydonlaridan oqilona foydalanib, issiqxona va ochiq yerda ekin yetishtirishdan barqaror daromadga ega bo'lmoqda.

Mahalla yoshlaridan biri Mirshodbek Muhammadovga dehqonchilik qilishi uchun 20 sotix yer ajratilgan edi. U yerning 5 sotixida issiqxona tashkil qildi, pomidor yetishtirib, 30 million so'm daromad oldi. Qolgan 15 sotix maydoniga kartoshka ekkan, ayni paytda hosilni yig'ishga tayyorlanmoqda. Mirshodbek kartoshkadan 20 million so'm daromad olishni ko'zlamoqda. U o'tgan yilgi faoliyatiga nisbatan bu yilgi hosildorlik va daromadni 2–3 barobarga oshirishni reja qilgan.

Yana bir faol yosh Feruz Barotov 5 sotixli issiqxonada bodring yetishtirib, 10 million so'm daromad ko'rdi. Qolgan 35 sotix yer maydoniga kartoshka va baqlajon ekib, hozir hosil yig'ish arafasida turibdi. Uning umumiy rejalashtirilgan daromadi 40 million so'mni tashkil etadi.

Dilnora Abdullayeva esa o'tgan mavsumda qand lavlagi yetishtirib, 30 million so'm foyda ko'rgan edi. Bu yil u 2 sotix issiqxonada pomidor yetishtirib, 8 million so'm daromad oldi. Qolgan 18 sotix yerga kartoshka ekib, 25 million so'm daromad olishni rejalashtirgan.

### SHAXSIY NAMUNA

Ozodbek Aminjonov yoshlarga shaxsiy namuna bo'la oladi. U 2024-yili "Yilning eng namunali mahalla yoshlar yetakchisi" tanlovida tuman bosqichi g'olibligini qo'lga kiritib, hududiy bosqichda faol ishtirok etgan. 2025-yil I chorak yakunlari bo'yicha respublikaning "Top – 100" yetakchisi safiga kiritilgan. "Ibrat farzandlari"ning "Super Start" loyihasida ingliz tilini o'rganib sertifikat sohibi bo'ldi.

Mahalla yoshlari esa "Besh tashabbus olimpiadasi" "Yosh musavvir" tanlovining tuman bosqichida 2-o'rinni egalladi. Bu natijalar faqatgina individual yutuq emas, balki tizimli va doimiy sa'y-harakatlarning mahsulidir.

Bugungi raqamli dunyoda yoshlar faolligini faqat jismoniy ishlarda emas, balki intellektual va innovatsion loyihalarda ham shakllantirish kerak. Shu jihatdan Bahouddin Naqshband mahallasida quyidagi loyihalar muvaffaqiyatli olib borilmoqda:

"Ibrat farzandlari" loyihasi doirasida 500 nafardan ziyod yosh ro'yxatga olinib, 78 nafari sertifikat olishga erishdi;

"Mutolaa" loyihasida 294 nafar yosh 1512 ta kitob o'qigan;

"Ustoz AI" loyihasida 8 nafar yosh ro'yxatdan o'tib, zamonaviy kasblarni o'rganmoqda.

> **OZODBEK AMINJONOVNING FIKRICHA, HAR BIR YOSH O'Z SALOHIYATINI TO'LAQONLI RO'YOBGA CHIQARISHI UCHUN UNGA IMKONIYAT, ISHONCH VA YO'L KO'RSATUVCHI KERAK. ANA SHU OMILNI MUHAYYO QILISH YETAKCHINING ASOSIY BURCHIDIR.**

### KELAJAK REJALARI: O'SISH DAVOM ETADI

Ozodbek Aminjonov bugungi erishilgan natijalar bilan kifoyalanib qolmasdan, o'z oldiga katta va uzoq muddatli maqsadlarni ham qo'ygan. U yetakchi sifatida mahalladagi har bir yoshning salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni hayotga tayyorlash, ayniqsa, iqtisodiy va intellektual jihatdan mustaqil fikrlovchi avlodni shakllantirish yo'lida izchil harakat qilmoqda.

Kelgusidagi asosiy rejalar quyidagilardan iborat:

**"Yosh fermerlar maktabi" loyihasini ishga tushirish** – bu orqali yer ajratilgan, ammo dehqonchilik ko'nikmasi yetarli bo'lmagan yoshlar uchun amaliy va nazariy treninglar tashkil etiladi. Har bir ishtirokchiga mentor biriktiriladi.

**Issiqxonalar sonini va maydonini ikki barobarga oshirish** – bu yil kamida yana 8 nafar yoshni issiqxona bilan ta'minlab, ularning tadbirkorlikka kirib kelishini qo'llab-quvvatlash rejalashtirilgan.

**"Yoshlar klasteri" modelini joriy etish** – ya'ni biror mahsulot (pomidor, kartoshka, lavlagi va shu kabilar) atrofida birlashgan yosh dehqonlar guruhini tashkil etib, ularni urug'lik, texnika, savdo va eksport bilan tizimli ta'minlash.

**Raqamli savodxonlik va zamonaviy kasblar bo'yicha mini akademiya tashkil etish** – "Ustoz AI" loyihasiga yoshlar qamrovini kengaytirib, mahalla yoshlarini sun'iy intellekt, grafik dizayn, veb dasturlash, til o'rganish bo'yicha o'quv kurslariga jalb qilish.

**"Har bir yoshga amaliy loyiha" yondashuvini joriy etish** – yoshlarning o'z g'oyalarini amalda sinab ko'rishlari, ularni bosqichma-bosqich rivojlantirishi va moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimiga bog'liq holda ro'yobga chiqarish imkoniyatini yaratish.

Ozodbek Aminjonovning fikricha, har bir yosh o'z salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarishi uchun unga imkoniyat, ishonch va yo'l ko'rsatuvchi kerak. Ana shu omilni muhayyo qilish yetakchining asosiy burchidir.

## BANDLIK: NATIJA VA RAQAMLAR

Yil boshida viloyatning 724 ta mahallasida o'tkazilgan xatlov natijasida 7 812 nafar ishsiz yosh aniqlanib, ularning bandligini ta'minlash bo'yicha aniq reja ishlab chiqildi. Bugungi kunga kelib, ushbu yoshlardan 6 295 nafarining bandligi ta'minlandi.

Xususan, 1 904 nafari doimiy ish o'rinlariga joylashtirildi, 875 nafar yosh esa tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun kredit mablag'lari bilan qo'llab-quvvatlandi. Shuningdek, 1 660 nafar yoshga ekin yer maydonlari ajratildi, 122 nafariga zarur asbob-uskuna va inventarlar olib berildi. Bundan tashqari, 28 nafar yosh xorijiy mehnat migratsiyasiga yuborildi, 11 nafari ta'limga jalb qilindi, 398 nafari esa muddatli harbiy xizmatga jo'natildi. Shu bilan birga, 1 297 nafar yosh o'zini o'zi band qilgan fuqarolar sifatida rasmiylashtirildi.

Mehnat bozoriga kirib kelayotgan 27 989 nafar bitiruvchining bandligini ta'minlash ham dolzarb vazifa sifatida kun tartibida turibdi. Ularning 6 789 nafari oliy ta'lim, 1 675 nafari professional ta'lim muassasalarini, 19 528 nafari esa umumta'lim maktablarining 11-sinfini tamomlagan bitiruvchilardir. Bu toifadagi yoshlarning ish bilan ta'minlanishi yuzasidan sektorlar kesimida kompleks chora-tadbirlar belgilab olingan va ularning izchil ijrosi ta'minlanmoqda.

**6295 NAFAR YOSHNING BANDLIGI TA'MINLANDI**





## TAYANCH BANK

Prezident qaroriga muvofiq, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadida "Aloqabank" yoshlar tayanch banki sifatida belgilandi. Bu tashabbus asosida bank tomonidan yoshlar uchun umumiy qiymati 200 million AQSh dollariga teng imtiyozli kredit liniyasi yo'lga qo'yildi.

Mazkur moliyaviy imkoniyatlar doirasida 2025-yilning o'zida 316 nafar yoshga jami 43,2 milliard so'm miqdorida kredit mablag'lari yo'naltirildi. Bundan tashqari, 4 813 nafar yoshga 107,8 milliard so'mlik, oliy ta'lim muassasalari 96 nafar bitiruvchilari uchun esa 1,5 milliard so'm miqdorida qo'shimcha moliyaviy ko'mak ko'rsatildi.





**Asliddin XURRAMOV,**
Surxondaryo viloyati yoshlar ishlari boshqarmasi boshlig'i

## IJTIMOIY KO'MAK MEZONI

Yil boshidan buyon "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 3 678 nafar yoshdan 2 928 nafariga amaliy ko'mak berilib, ular ro'yxatdan chiqarildi. Bu esa hududlarda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari samarali va maqsadli yo'lga qo'yilganidan dalolat beradi.

Yanvar-iyun oylarida esa mahallalarda hamda xorijda istiqomat qilayotgan jami 19 342 nafar yosh ishtirokida viloyat va tuman hokimlari bilan 425 ta ochiq muloqot va uchrashuv tashkil etildi. Uchrashuvlarda yoshlar ko'targan 1 275 ta muammoning 1 187 tasi (93,1 foizi) tegishli tashkilotlar tomonidan hal etildi.

Shuningdek, "Yoshlar balansi"ni shakllantirish jarayonida viloyatdagi 693 939 nafar yosh qamrab olinib, 22 046 nafarining migratsiyada ekani aniqlangan. Shundan 4 931 nafar yosh Vataniga qaytarildi. Shu bilan birga, 20 mingdan ortiq yoshlarning norasmiy migratsiyada ekani mehnat migratsiyasini manzilli rejalashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.





## YOSHLAR TAQDIRI MAS'ULLAR ZIMMASIDA

Yoshlar muammolarini joyida hal etish va ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish maqsadida 7 812 nafar yosh 357 ta tashkilot rahbariga biriktirildi. Har bir mas'ul rahbarga o'ziga biriktirilgan yosh bilan har oyda kamida bir marotaba uchrashib, bandligini ta'minlash, kasb-hunarga yo'naltirish va amaliy yordam ko'rsatish vazifasi yuklatildi. Tizimli ishlar natijasida hozirgi kungacha 6 295 nafar yoshning bandligi ta'minlandi.

Shuningdek, huquqbuzarlikka moyil va og'ir ijtimoiy holatdagi 4 338 nafar yosh huquqni muhofaza qiluvchi organlar va mudofaa tizimi xodimlariga otaliqqa biriktirildi. Mazkur toifadagi yoshlar bilan profilaktik va tarbiyaviy yo'nalishda muntazam ishlar yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularning sog'lom hayot tarziga qaytishi, ijtimoiy moslashuvi va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

## MARD-U MAYDON

Joriy yilda Surxondaryo viloyatida yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularni ma'naviy va jismoniy jihatdan rivojlantirish maqsadida keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida o'tkazilgan tanlov va sport musobaqalarida jami 907 967 nafar yosh qamrab olindi.

"Davlat xavfsizlik xizmati kubogi" sport musobaqalarida ishtirok etish uchun 68 663 nafar yosh ariza topshirgan bo'lib, ulardan 62 567 nafari musobaqalarda ishtirok etdi. Hozir musobaqalarning tuman (shahar) saralash bosqichlari faol davom etmoqda.

Shuningdek, "Shijoat va g'ayrat" harbiy-sport musobaqalarida 19 816 nafar yosh ishtirok etdi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularni mudofaa sohasiga qiziqtirish maqsadida "Harbiy qismda bir kunim" loyihasi doirasida 32 marotaba "Ochiq eshiklar kuni" tadbirlari tashkil etildi.

## TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI 100 TAGA KO'PAYDI

Surxondaryo viloyatida yoshlar salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish borasida qator tizimli loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Ibrat farzandlari" loyihasi doirasida 149 mingdan ortiq yosh 23 ta xorijiy tilni o'rganishga jalb etilib, shulardan 8 451 nafari xalqaro sertifikatlarga ega bo'ldi. C1 darajasiga ega bo'lgan 1 245 nafar yoshning 2,1 milliard so'mlik imtihon xarajatlari davlat tomonidan qoplab berildi.

"Kelajak kasblari" loyihasi doirasida viloyatdagi 821 nafar yoshning o'quv markazlarda tahsil olishi uchun zarur xarajatlar to'liq qoplandi. Natijada so'nggi uch yil ichida xorijiy tillarga ixtisoslashgan tadbirkorlik subyektlari soni 100 taga ko'payib, viloyatdagi til o'rganish infratuzilmasi yanada rivojlandi.

Ma'naviy-ma'rifiy yondashuvlar ham e'tibordan chetda qolmagan. "Mutolaa" loyihasi orqali 99,1 ming nafar yosh kitobxon aniqlanib, ularning intellektual salohiyati rag'batlantirildi.

## YOSHLAR BILAN ISHLASH TIZIMI BO'YICHA PEKIN TAJRIBASI O'RGANILMOQDA

Yoshlar bilan ishlash tizimini rivojlantirish va xorijiy tajribalarni o'rganish maqsadida Xitoyda bo'lib turgan O'zbekiston delegatsiyasining navbatdagi manzili Pekin shahri bo'ldi.

Pekin Davlat Milliy boshqaruvi akademiyasida o'zbekistonlik yoshlar bilan iliq va mazmunli uchrashuv bo'lib o'tdi. Suhbat chog'ida yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, ularni qiynayotgan masalalar va ularning yechimlari yuzasidan ochiq fikr almashildi. Talab va takliflar tinglanib, bir qator amaliy g'oyalar ilgari surildi.

Shuningdek, O'zbekistonning Pekindagi elchixonasida ham alohida uchrashuv o'tkazildi. Unda Madaniyat vaziri va Yoshlar ishlari agentligi direktorining o'rinbosari ishtirok etdi. Uchrashuv yakunida "Ibrat Academy" tomonidan tayyorlangan esdalik kartochkalari ishtirokchilarga topshirildi.

Delegatsiya Pekindagi eng yirik kutubxonalardan birida ham bo'ldi. 40 millionga yaqin adabiyot jamlangan ushbu maskanga har kuni 10 mingdan ortiq kitobsevar keladi. Muhimi, mazkur kutubxona bilan O'zbekiston Milliy kutubxonasi o'rtasida elektron kitoblar bazasini integratsiya qilish bo'yicha kelishuvga erishildi.

# ODIL VA MUSTAQIL SUD

**Madinabonu ESONOVA,**
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



**Monteskye** *nigohida*

Huquqiy savodxonlik

Davlat boshqaruvining eng asosiy tamoyillaridan biri – hokimiyatlar bo'linishi. Bu g'oya zamonaviy huquqiy davlatlarning negizini tashkil etadi. Monteskye mazkur tamoyilni nazariy jihatdan chuqur asoslab bergan. Uning fikricha, hokimiyat bir qo'lda jamlansa, u holda bu istibdodga olib keladi, chunki inson tabiati zaif va o'z manfaati sari intiluvchandir. Uning so'zlari bilan aytganda: *"Har kim hokimiyatga ega bo'lsa, u uni suiiste'mol qilishga moyildir. Hokimiyatni suiiste'mol qilishning oldini olish uchun har bir hokimiyat boshqa bir hokimiyatni muvozanatlab turishi kerak".*

**"Hokimiyatni hokimiyat bilan to'xtatish"** prinsipi zamonaviy konstitutsiyaviy tizimlarning asosiy ustuniga aylangan. Ayniqsa, sud hokimiyati Monteskye uchun alohida o'rin tutadi. U sudni "hokimiyatlarning eng xavfsizi, ammo eng muhimidir" deb hisoblaydi. Sud hokimiyati doimo qonunga tayanishi, boshqa tarmoqlarning ta'siridan xoli bo'lishi, fuqarolarning erkinliklarini himoya qilishi kerak.

Monteskye sud hokimiyatining shunchaki mavjudligini emas, balki uning **mustaqilligini** bosh tamoyil sifatida ko'rsatadi. Unga ko'ra, sud hokimiyati qonunga tayanib harakat qilsa-da, uning muvaffaqiyati mustaqillik va xolislikka bog'liq. U bu holatni tarixiy misollar bilan mustahkamlab, Rim davridagi va feodal Yevropadagi hokimiyat suiiste'mollarini keltiradi. Monteskyening bu qarashlari nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham beqiyos ta'sir ko'rsatgan. Bugungi kunda demokratik davlatlarning konstitutsiyalarida uch hokimiyatning bo'linishi, ayniqsa, sud hokimiyatining mustaqilligini kafolatlovchi mexanizmlar aynan shu nazariyaga tayanadi. Shuningdek, sud hokimiyatining vakolatlarini haddan oshirmasligi, faqat qonunlar doirasida ishlashi zarurligini ham Monteskye qat'iy ta'kidlagan. Uningcha, sud hokimiyati na siyosiy manfaatlarga, na shaxsiy bosimlarga xizmat qilishi kerak – u faqat qonun va vijdon asosida qaror qabul qilishi lozim. Shuning uchun sudyalar mansab muddati davomida mustaqil bo'lishi, ularning faoliyatiga aralashuv qat'iyan taqiqlanishi kerak. Monteskyening bu qarashlari orqali sud hokimiyatining rolini oddiy nizolarni hal qiluvchi organ sifatida emas, balki **davlat va jamiyat o'rtasida adolatli muvozanatni ta'minlovchi mexanizm** sifatida ko'rish mumkin. Aynan shuning uchun uning nazariyasi bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Nafaqat Yevropa mamlakatlarida, boshqa demokratik jamiyatlarda ham sud tizimining mustaqilligi va samaradorligi Monteskye prinsiplari asosida baholanadi.

> MONTESKYE SUD HOKIMIYATINING SHUNCHAKI MAVJUDLIGINI EMAS, BALKI UNING MUSTAQILLIGINI BOSH TAMOYIL SIFATIDA KO'RSATADI.

Sud hokimiyati davlat tuzilmasining ajralmas bo'lagi bo'lib, uning asosiy vazifasi fuqarolar huquq va erkinliklarini qonun doirasida himoya qilishdan iborat. Sudlar nafaqat nizolarni hal qiladi, balki jamiyatda adolat, qonun ustuvorligi va ishonch muhitini shakllantiradi. Insonlarning davlatga, qonunga va bir-biriga hurmati sud qarorlari orqali mustahkamlanadi. Adolatli sud tizimi mavjud bo'lmagan jamiyatda zo'ravonlik, ijtimoiy tengsizlik va fuqarolik beqarorligi kuchayadi. Sud hokimiyati qonunlarning matnini hayotiy mazmunga aylantiradi, ya'ni qonuniy normalar orqali real himoya kafolatini beradi. Shu bois sud hokimiyatiga ishonch darajasi mamlakatdagi huquqiy madaniyat, ijtimoiy barqarorlik va hatto iqtisodiy taraqqiyot bilan bevosita bog'liqdir.

Bugungi kunda ko'plab mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston ham sud tizimini isloh qilishga, uning mustaqilligini kuchaytirishga katta e'tibor qaratmoqda. Sudlar faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va fuqarolar uchun tushunarli bo'lishi zamonaviy huquqiy davlatning eng muhim belgilari sirasiga kiradi. Jumladan, Konstitutsiyamizning XXIII bob 130-moddasida shunday deyiladi: "O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritadi".

Shuningdek, sud hokimiyati faqat davlatning vakolatli organi sifatida emas, xalq ishonchiga tayanuvchi institut sifatida faoliyat yuritmog'i lozim.

Bu jihatdan sud qarorlarining adolatli, asosli va hayotiy ehtiyojlarga mos bo'lishi nihoyatda muhimdir. Sudya nafaqat qonunni bilishi, balki inson tabiatini, ijtimoiy adolat hissini ham tushunishi kerak. Monteskyening o'zi ham sud hokimiyatining kuchi qonunda emas, adolatga xizmat qilishda ekanini ta'kidlagan. Adolatli sudlov nafaqat sudyalarning qonunga asoslangan qarorlari, balki jamoatchilikning ishonchi bilan ham mustahkamlanadi. Shu jihatdan qaralganda, xalq maslahatchilari instituti sud tizimini jamiyatga yanada yaqinlashtiradigan muhim vosita hisoblanadi. Ular oddiy fuqarolar vakili sifatida sud majlislarida ishtirok etib, qaror qabul qilish jarayonida jamoatchilik nuqtayi nazarini ifodalaydi.

Xalq maslahatchilarining ishtiroki sud qarorlarining faqat huquqiy emas, ijtimoiy va axloqiy asoslarda ham adolatli bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu Monteskyening "hokimiyat muvozanati" haqidagi g'oyasi bilan uyg'un bo'lib, sud tizimiga ichki nazorat va tashqi ishonch muhitini olib kiradi. Ular go'yoki xalq va davlat o'rtasidagi ko'prik rolini bajaradi. Bunday mexanizm sud tizimi yopiq doiraga aylanishining oldini oladi. Xalq vakillari ishtirok etayotgan jarayonlarda ochiqlik, oshkoralik va halollikka bo'lgan talab kuchayadi. Natijada fuqarolar sudga shunchaki huquqiy mexanizm, o'z fikriga quloq tutiladigan adolat manbayi sifatida qaray boshlaydi. Shuning uchun ham ko'plab davlatlar sudlovda xalq maslahatchilarining ishtirokini targ'ib qiladi va buni demokratik qadriyatlarning bir qismi deb hisoblaydi.

Xalq maslahatchilari professional huquqshunos bo'lmasligi mumkin, ammo ularning hayotiy tajribasi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy sezgirligi sud muhokamasini yanada insoniy va haqiqatga yaqinlashtiradi. O'zbekiston qonunchiligida xalq maslahatchilarining aks etishini bir qator hujjatlarda, jumladan, "Sudyalar to'g'risida"gi qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarorida ko'rishimiz mumkin.

Monteskye ilgari surgan hokimiyatlar bo'linishi nazariyasi g'oya hokimiyatni boshqarish mexanizmi bo'lishi bilan birga, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish usuli sifatida ham qadrlanadi. Zamonaviy dunyoda, xususan, huquqiy davlat qurish yo'lida qat'iy intilayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sud hokimiyati mustaqil bo'lmagan jamiyatda qonun faqat qog'ozda qoladi. Shu bois sud tizimi faqat yuridik mexanizm emas, balki siyosiy va ma'naviy muvozanatni saqlovchi institutdir. Undagi har qanday zaiflik jamiyatda ishonchsizlik, huquqiy bo'shliq va ijtimoiy tanglikka olib kelishi mumkin.

Xalq maslahatchilari instituti bu tizimning ochiqligi, xalq fikriga tayanishi va jamoatchilik bilan aloqadorligini kuchaytiruvchi vositadir. Ular orqali sud qarorlariga insoniylik, axloqiylik va hayotiy real tajriba kirib keladi. Bu Monteskye ilgari surgan adolat, tenglik va hokimiyat muvozanatini jamiyatda yanada chuqurroq qaror toptirishga xizmat qiladi.

Sud hokimiyatining mustaqilligi va jamoatchilik ishtiroki demokratik boshqaruvning, huquqiy madaniyatning va fuqarolik jamiyatining ajralmas qismlaridir. Monteskyening "Qonunlar ruhi" asari ijtimoiy ongni shakllantirishda adolat qanday markaziy o'rin tutishini ko'rsatadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan sud-huquq islohotlari, ayniqsa, xalq maslahatchilarining faol ishtirokini ta'minlash, ochiq sud tizimini shakllantirish yo'lidagi qadamlar ayni shu tamoyillar bilan uyg'un holda davom etishi lozim.

# ILMDAN INNOVATSIYAGA



## DAVRON MAHMUDOV – YOSHLAR UCHUN ILHOM MANBAYI

Bugungi yoshlar ertangi kunning innovatorlari. Har bir yurtdoshimiz ilm-fan, tibbiyot, texnologiya yoki menejment sohasida yuksak cho'qqilarni egallayotgan bo'lsa, ularning orqasida mehnat, fidoyilik va xalqiga sadoqat yotadi. Doktor Davron Mahmudov ana shunday fidoyi insonlardan biri. Uning hayot yo'li bugungi yoshlarga o'z orzulari sari dadil intilish uchun yorqin namuna bo'la oladi.

Davron Mahmudov – yuqumli kasalliklar sohasida mutaxassis va sifat nazorati bo'yicha ekspert. Uning faoliyat yo'li klinik amaliyotni oziq-ovqat va dori vositalarining xalqaro xavfsizlik standartlari bilan uyg'unlashtiradi. Davronning tajribasi O'zbekiston, Rossiya, Yevropa va AQShni qamrab olgan. Doktor u yerda sog'liqni saqlash tizimida sifat nazoratining eng yaxshi usullarini o'rganmoqda va ularni O'zbekistonda joriy qilishni maqsad qilgan. Uning asosiy maqsadi jamoat salomatligini muhofaza qilish.

### YUKSAK MAQSAD SARI

Doktor Mahmudovning ilk qadamlari Toshkentdagi 242-maktabda boshlangan. So'ng u Toshkent pediatriya tibbiyot instituti akademik litseyida, ayni shu institutda tahsil olib, Rossiyadagi Sankt-Peterburg davlat pediatriya akademiyasida tahsilini davom ettirgan. U pediatriya bo'yicha mutaxassis bo'lish bilan birga, bolalarda C gepatiti infeksiyasini individual tarzda davolash yo'nalishida nomzodlik dissertatsiyasini ham muvaffaqiyatli himoya qildi.

### ILM-FAN BILAN AMALIYOTNI UYG'UNLASHTIRDI

2012–2016-yillarda u Toshkent pediatriya tibbiyot institutida xalqaro loyihalarni muvofiqlashtirib, Yevropa bilan hamkorlikda sog'liqni saqlashga oid yirik loyihalarda ishladi. Shu bilan birga, Toshkentdagi epidemiologiya markazida shifokor sifatida faoliyat yuritib, minglab bolalar sog'lig'ini tiklash yo'lida fidoyilik ko'rsatdi.

Bu yillarda u o'zining ilk ilmiy monografiyalarini o'zbek va ingliz tillarida nashr ettirdi. Bu ilmiy ishlar Toshkentdagi oliy tibbiyot muassasalarida o'quv qo'llanma sifatida foydalanilmoqda.

### SIFAT – KELAJAK POYDEVORI

So'nggi yillarda doktor Mahmudov ilmiy faoliyatini global sifat nazoratiga yo'naltirdi. U Maltadagi oziq-ovqat korxonalarida Yevropa sifat standartlarini o'rgandi, so'ngra EU-GMP talablariga javob beruvchi farmatsevtika kompaniyasida faoliyat yuritdi. Hozir AQShda sifat bo'limi analitigi sifatida dori vositalari va oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi ustida izlanmoqda.

Davron Mahmudov har bir jarayonda 60 dan ortiq fizik-kimyoviy tahlillar, xavfsizlik va aniqlik monitoringi, sifat standartlarini ishlab chiqish va joriy qilish bilan shug'ullanadi. Bu faoliyati orqali u sog'liq uchun eng muhim bo'lgan yo'nalishlarda global xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

> BOSH MAQSAD O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIGA XALQARO SIFAT NAZORATI TIZIMINI JORIY ETISHDIR.

### MEHNAT VA QAT'IYAT MEVASI

Davron Mahmudovning bosh maqsadi O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimiga xalqaro sifat nazorati tizimini joriy etishdir. U FDA va USP kabi dunyo bo'yicha tan olingan AQSh regulyator tizimlarining eng yaxshi tajribasini o'rganib, ularni O'zbekistonga olib kelish, mahalliy xodimlarni o'qitish va zamonaviy sifat siyosatini shakllantirish ustida ishlamoqda.

Doktor hozir "Yevropa va Amerika sifat nazorati standartlarini O'zbekistondagi farmatsevtika va oziq-ovqat mahsulotlari nazorat tizimiga integratsiya qilish: innovatsion yondashuvlar va global ahamiyat" mavzusida doktorlik dissertatsiyasi ustida izlanmoqda.

U bizga bir haqiqatni ko'rsatadi: orzu, mehnat va qat'iyat bor joyda, har qanday cho'qqilar zabt etiladi. U bugungi O'zbekiston yoshlari uchun chinakam ilhom manbayi, ilm bilan qurollangan, zamonaviy dunyoni yaxshi biladigan va Vataniga sodiq yetakchi mutaxassisdir.

Agar siz ham tibbiyot, ilm-fan yoki sifat nazorati sohasida kelajagingizni ko'rayotgan bo'lsangiz, doktor Mahmudovning yo'li siz uchun o'rnak bo'la oladi. Zero, har bir kuchli davlat kuchli salomatlik tizimi bilan mustahkamlanadi, bu tizim esa aynan siz kabi fidoyi va bilimli yoshlar bilan quriladi.

# Iroda RAHMONALIYEVA



Endi vayron bu jahon bo'ston edi o'shal dam,
Sirim sen-u sirdoshim Rahmon edi o'shal dam...

Chilzarraman, har zarram "Ishq!" deb tortadir na'ra,
Yoding-la bor mushkulim oson edi o'shal dam.

Boqsang, ko'zing nurlanur, ko'ngli masrurim manim,
Oshiqlig-u ma'shuqlik unvon edi o'shal dam.

Mehrim boshing ustiga, qahrim boshing ustiga,
Bir tabassumim senga ehson edi o'shal dam.

Nolon esam giryonim, shodon esam xushxonim,
Majnun senday junundin hayron edi o'shal dam.

Ishq ila ma'sum edik, boshdin oyoq nur edik,
Men Havvo, sen Hazrati Inson eding o'shal dam.

* * *

Ko'zlarimni yoshlatgan ko'zlaringdan ranjidim,
Yuragimga tosh otgan so'zlaringdan ranjidim.

Mavjudman-u, yo'qdayman, yarmim eding, toqdayman...
Keltirsang-da, boqmayman olamning bor ganjini.

Tosh yurakka do'narmi? Endi labing kularmi...
Hayhot, butlab bo'larmi siniq dil shikanjini?

Buncha dilozor odam?! Zirqirar jon tig' botar,
So'z nishlaring uyg'otar yoshlarimning mavjini.

Xush qol, deding... Qolmoqlik – cho'g'da lov-lov yonmoqlik,
Ilinj qiynar so'roqli – uzildi qalb zanjiri?

Yoding shom-u saharlar dilimga o't qalar va
Kipriklarim chalarlar vido kuyning avjini.

Ranjidim...

***

Agar nurman, agar oftob,
Va yo yog'du va yo mohtob,
Na bo'lsam ham, manim yakto
Madorim bo'l...

Agar gulgun, agar durkun,
Va yo so'lg'in va yo hurkir,
Na bo'lsam ham, sen ey ko'rkim,
Harorim bo'l...

Agar qushman, agar xushman,
Va yo o'ngman va yo tushman,
Na bo'lsam ham dilim xushlar
Qarorim bo'l...

Agar tergar, agar sergap,
Va yo ko'ksing tilar mergan...
Na bo'lsam ham faqat senga
Bororim bo'l...

***

Ranglimidi dunyo o'shanda?
Muhabbatli... Yana kim bilsin...
Bizdek baxtli tuyulmas edi
Ikkimizdan boshqa hech kimsa.

Oq-qoradir endi bor taraf,
Sen menga kam... Men senga kamman...
Nega baxtli tuyular endi
Ikkimizdan tashqari hamma?

YOSHLAR OVOZI
BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

**Muassis:** O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi

**Bosh hamkor:** O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi

Bosh muharrir: **Hamza ABDULLAYEV**

**Mas'ul muharrir:** Muhammadshukur MUHAMMADJONOV

**Navbatchi muharrir:** Shahobiddin LUQMON

**Fotograf:** Xolida MUSULMON

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.
Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.
Tahririyat manzili: 100000, Toshkent, Mustaqillik shoh ko'chasi, 2.
Telefon: (71) 233-22-16.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-2 formatda chop etildi.
Hajmi – 2 bosma taboq.
Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203.
Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-708, Adadi – 10395.
Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

/yoshlarovozi /yoshlarovozi /yoshlarovozi.uz

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

ISSN 2010-6998

1 2 3 4 5 6